

TEMURIYLAR DAVRIDA KITOBAT SAN'ATI*Davlatov Orziqul Bahodirovich**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi**davlatovorziqul@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat san'ati qay darajada rivoj topganini ko'ramiz. Biz bilamizki tariximizda ba'zi davrlarga oid ma'lumotlar kam, lekin Amir Temur va temuriylar davri haqidagi manbalar esa ko'p uchraydi. Bu bekorga emas. Chunki Amir Temur davrida qo'lyozmachilik, xattotlik va kitobat san'ati ancha taraqqiy etdi. Bularning barchasi sohibqiron tufayli. Chunki Amir Temurning o'zi ham savodli va o'qimishli kishi bo'lgan. Mamlakatida esa olim-u fuzalolarga katta e'tibor bergan, ularning ijod qilishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Shu tufayli bu davrda ko'plab tarixiy kitoblar yaratilgan.

Kalit so'zlar: kitobat, O'rta Osiyo, kutubxonalar, Ibn Xaldun, olimlar, miniatyura, xattotlik, "Zafarnoma", naqshlar, madrasa.

Kirish.

Tarixdan bizga ma'lumki, Amir Temur va Temuriylar davrida ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan noyob va nodir hisoblangan tarixiy qo'lyozma asarlar fondlarining shakllanishi, ilm-fanning turli yo'nalishlariga oid asarlar yaratilgan. Ularni yaxshi saqlab qolish uchun kutubxonalar qurilgan. Yuksak bilim va irodaga ega bo'lgan Amir Temur o'z davrining talab va ehtiyojlarini to'g'ri anglab yetdi va uni amalga oshirdi. Amir Temur yoshligidanoq kitob mutolaa qilib, bilim olishga, odil va fozil kishilarning qoldirgan merosini o'rganishga intilgan. U kitob haqida shunday degan: "Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Amir Temurning Ko'ksaroy kutubxonasi boy ilm o'choqlari sifatida mashhur edi. Unda arab, turk, fors, lotin va boshqa tillarda 13,5 mingdan ziyod turli fanlarga oid kitoblar to'plangani ma'lum. Mashhur tarixchi G. Veberning yozishicha, Amir Temurning yonida doim shoirlar, olimlar, mashshoqlar va so'filar bo'lgan. Amir Temur sarkarda sifatida eng avvalo, harbiy maqsadlarini tezroq amalga oshirishga harakat qilgan. Ulkan davlatni boshqarish ham oson ish emasdi. Lekin, shunga qaramasdan, Amir Temur ilm, ma'rifat ahlini qo'lga kiritilgan har qanday o'ljalardan yuqori qo'ygan. "Amir Temur, deb yozadi D.N.Logafet, - jangdan so'ng qo'lga olingan o'ljalarning eng qimmat bahosi va qadrlisi rassom va olimlar deb hisoblagan ". Ibn Arabshohning ma'lumot berishicha: "Temur har bir foydali insonni yig'ib, har qanday narsaning sarasini Samarqandga keltirdi. Shu tufayli Temuriylar

davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarda, xususan, Eron, Ozarbayjon, Hindiston va Pokistonda fan, madaniyat va maorif sohasida ikkinchi renesansni rivojlantirdi.¹

Asosiy qism.

Amir Temur davrida qo'lyozma kitoblar juda qadrlangan va nozik did bilan ishlangan. Shuning uchun ham turli xil nodir asarlar bizgacha yetib kelgan. Papirus, pergament va qog'oz qo'lyozma kitob uchun asosiy ashyo hisoblangan. "Xattotlar shohi" Sulton Ali Mashhadiy, Hirot miniatyura maktabining asoschisi Kamoliddin Behzod va kitob naqsh ustasi mashhur naqqosh Mavlono Yoriy badiiy qo'lyozma durdonalarini yaratish ustida ishlagan yuzlab ustalarga ustozlik qilishgan. Bevosita ularning o'zi yoki ularning rahbarligida yaratilgan har bir qo'lyozma noyobligi, betakrorligi bilan ajralib turgan. Sulton Ali Mashhadiy yirik dastxatlarda ko'chirgan uchta devon ham o'ziga xos badiiy yechimga ega. Alisher Navoiyning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan "Xamsa" asari 1492-1493-yillarda ko'chirilgan nusxasi temuriylar davridagi miniatyurasiz ishlangan asarga yaqqol misol bo'ladi. Shunday qilib "Xamsa" qo'lyozmasini, unda miniatyura yo'qligiga qaramay, Temuriylar badiiy qo'lyozmalari durdonalari qatoriga dadil kiritish mumkin, XV asr ikkinchi yarmidagi Hirot maktabining yangi o'ziga xos uslubining mumtoz namunasi bo'la oladi. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonini badiiy bezaklar bilan Abdu Jamil degan kotib ham nusxasini ko'chirgan. Kitob Hirotning qora-qo'ng'ir ranglaridan iborat ipak qog'ozida kichkina chiroyli harflar bilan yozilgan. Dostondagi hamma boblarning sarlavhalari suyuq oltin va kinovar bilan bitilgan. Bundan tashqari temuriy hukmdor Husayn Boyqaroning saroy kutubxonasida o'sha davrning eng iqtidorli rassomlari: Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Shoh Muzaffar, Sulton Muhammad, Do'st Muhammad, Abdurazzoq, xattotlar Sulton Ali Mashhadiy, Muhammad ibn Nur, Darvish Muhammad Toqi, Muhammad Xandon, Muhammad ibn Asxor, Sher Ali va boshqalar ishlashgan. Temuriylar davri badiiy qo'lyozmasining eng go'zal namunalari Samarqand, Buxoro, Tabriz, Mashhadda yaratilgan. Ularni bezaklarining xususiyati bo'yicha uch guruhga bo'lish mumkin: miniatyurali badiiy qo'lyozmalar, miniatyurasiz naqshlar bilan bezatilgan badiiy qo'lyozmalar va qadr-qimmat, fazilati xattot san'ati bilan belgilanadigan badiiy qo'lyozmalar. Temuriylar davri tasviriy san'ati - kitob miniatyurasi yo'nalishida rivojlandi. Tasviriy san'atning ushbu turlari mintaqa doirasida o'ziga xos devoriy suratlar, amaliy san'atlarda o'z aksini topgan qadimiy, islomdan oldingi ildizlarga ega edi. Amir Temur hukmronligi va undan keyingi davrda eng mashhur musavvirlardan biri Pir Ahmad Bog'i Shimoliy hisoblangan. Bog'i Shimol saroyining devoriy rasmlari ham Pir Ahmad Bog'i Shimoliy mo'yqalamiga mansubdir. Qo'lyozma kitoblardagi miniatyura Amir Temur davrida tasviriy san'atning devoriy rassomlikdan keyingi ikkinchi yo'nalishi sifatida

¹ 1. B. Axmedov. "AMIR TEMUR SABOQLARI" (2-qism). Toshkent "G'afur G'ulom" 1999. 5-22-bet

rivojlangan. XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmida u bir necha badiiy markazlarda — Samarqand, Hirot, Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Yazdda jamlangan edi. Samarqand esa qadimdan yirik ma'rifat va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Arab olimi Ibn an-Nadim o'zining "Fixristul-ulum" asarida bekorga bunday demagan: "Arablar 706-yili Samarqandga kelib, ular haligacha uchratmagan qog'oz ishlab chiqarish ustaxonalarini ko'rib, hayron bo'lishgan". Demak Samarqand Movarounnahrda kitob bezash va miniatyura sohasida yirik markazlardan biri bo'lgan. XIII asrda mo'g'ul bosqinchilari tomonidan shahar madaniyati vayron qilinib, ustalar qatl etilgan yoki olib ketilgan, Amir Temur zamonigacha iqtisodiyot, hunarmandlikning tiklanishi sekin bo'ldi. Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan paytda ajoyib rangtasvirli qo'lyozmalar yaratildi: Abdurahmon Sufiyning "Suvar al-kavokib as-sabita" nomli astronomik risolasi; qo'lyozmadagi alohida miniatyurada Ulug'bekning lochin bilan bog' sayri tasvirlangan. Binoning yig'ma-sinchli yuqori qismida viqor bilan o'tirgan Ulug'bek tasvirlangan va bino peshtoqida uning ismi ko'rsatilgan yozuv saqlangan: "Buyuk sulton, Ulug'bek Guragoniy, uning hukmdorligiga sharaflar bo'lsun"; Nizomiyning "Xamsa"si nusxasi, 18 ta miniatyura bilan saqlangan (To'pqopi saroyi, Istanbul). As-Sufiyning Ulug'bek talabiga ko'ra rangli tasvirlangan astronomik risolasi — "Turg'un yulduzlar kitobi" 1437-yili qayta ko'chirilgan.²

Yana Amir Temurga qaytadigan bo'lsak, u umrining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan bo'lsa ham, u madaniyat va kitobat san'atiga alohida e'tibor bergan. Ispaniya elchisi Klavixoning aytishicha Amir Temur davrida Samarqandda ming nafardan ortiq hunar egasi ijod mehnati bilan mashg'ul bo'lganlar. Mashhur xattotlar Umar O'kta, Mirali Tabriziy, musavvirlardan Pir Ahmad Bog'ishimoliy, ustod Jahongir, Junayd naqqosh, Muhammad Siyoh-qalam, Shomhammad va Shayx Muhammadlar shular jumlasidandir. Mirali Tabriziy nas'taliq yozuvini kashf etib xattotlikka katta hissa qo'shgan xattotlardan biri.³ Bizga ma'lumki Amir Temur va temuriylar davrida nafaqat Movarounnahrlik olimlar balki Damashq, Bag'dod, Isfahon, Sheroz, Xalab, Hindiston va shu kabi joylardan ham turli xil olimlar, shoirlar, musavvirlar kelgan va ijod qilgan. Movarounnahrda kitobat san'ati taraqqiy etgani uchun bu yerda juda ko'p nodir asarlar yaratilgan. Quyida esa biz bu yerlarda o'z kitoblarini yaratgan olimlarni ko'rib chiqamiz. Ibn Arabshoh ham shunday shaxslardan biri. Amir Temur Shomni egallagandan so'ng Ibn Arabshoh Samarqandga keltiriladi va shu yerda ijod qiladi. Arabshoh Sohibqiron Samarqandda to'plagan mashhur olimlar, munajjimlar, san'atkorlardan o'z xotirasida qolganlarni tilga olib tabrizlik mohir xattot Ibn Badgir, Tojuddin as-Salmoniy, munajjim va misgar mavlono Ahmad, sherozlik zargarlardan Hoj Ali va al-Hoj Muhammad, Hofiz sangtarosh va naqqosh

² X. Karomatov. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA". Toshkent "SHARQ" 2001. 171-177-bet.

³ B. Axmedov. "AMIR TEMUR SABOQLARI"(2-qism). Toshkent "G'afur G'ulom" 1999. 23-25-bet

Oltunlar nomini alohida qayd qiladi. “ Temurning naqqoshlari ko'p, ularning eng ustuni Abdulhay al-Bag'dodiy edi” deb yozib qoldirgan.⁴

Olimlar bilan majlis qurib suhbatlashish, ularning bahs-munozaralarida qatnashish sohibqiron Amir Temurning doimiy va sevimli mashg'ulotlaridan edi. U bilan suhbatlashib, bilim va zakovatiga qoyil qolgan olimlardan biri shimoliy afrikalik faylasuf va tarixchi Ibn Xaldundur. Olimning to'liq ismi Valiuddin Abu Zayd Abdurahmon ibn Muhammad ibn Xaldun. Ibn Xaldun Amir Temur bilan Suriya yurishi paytida uchrashadi. U o'tkir tafakkuri bilan Amir Temurga yoqib qoladi va 35 kun davomida Amir Temur bilan birga bo'ladi. Ibn Xaldunning mashhur asari “Muqaddima” bo'lib, unda muallifning tarix ilmiga bo'lgan qarashlari bayon etilgan. “Muqaddima”ni rus olimi S. M. Batsiyeva mukammal o'rganib, 1965-yilda Moskvada monografiya shaklida nashr etgan. Ibn Xaldunning “Kitob al-ibar” asari “Tarix Ibn Xaldun” nomi bilan Bayrutda 1988-yil sakkiz jildda nashr etilgan. Uning birinchi jildi “Muqaddima” va sakkizinchisi ilmiy ko'rsatkichlardan iborat. Bu to'plamning yettinchi jildi oxiriga “Tarjimai hol” ham to'liq kiritilgan va “At-Ta'rif bi Ibn Xaldun muallif hazra-l-kitab” (Bu kitob muallifi Ibn Xaldun bilan tanishuv) deb atalgan. Biz mana shu Bayrut nashridan Ibn Xaldunning sohibqiron Amir Temur bilan uchrashuvlariga bag'ishlangan qismini arab tilidan o'zbekchaga tarjima qilingan. Shuning uchun bu asar o'sha davr hayotini yorituvchi muhim manba hisoblanadi.⁵

“Zafarnoma” Amir Temur buyrug'i bilan Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan. Amir Temur Shomiy bilan ikkinchi uchrashuvida uni huzuriga chorlab , o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan . Sohibqiron o'sha davrga qadar munshiy va kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan . Yozilajak asar avom xalqqa tushunarli ,sodda, ravon tilda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishi lozimligini uqtirgan . Mavlono Nizomiddin asarni uning ko'nglidagidek uslubda yozishni o'z zimmasiga oladi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, AmirTemur bunday ma'suliyatli ishni ishonch bildirib Shomiyga topshirishi mavlono Nizomiddin o'z davrining bilimdon fuzalolaridan va zukko adiblaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Tabiiyki , bu uchrashuvdan so'ng Nizomiddin Shomiy saroy tarixchisi sifatida Amir Temurning keyingi barcha yurishlarida unga hamrohlik qilgan va bularning hammasini kitobiga bayon etgan. Nizomiddin Shomiy asosiy asari hisoblangan “Zafarnoma” - Markaziy Osiyoda, Oltin O'rda, Ozarbayjonda, Eronda, Afg'onistonda, Iroqda, Suriyada, Misrda, Turkiya va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqea-hodisalarni

⁴ M. Rahmonov, A. Umarov, T. G'afurbekov, M. Qodirov. “AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT” Toshkent “G'afur G'ulom” 1996. 19-33-bet

⁵ B. Axmedov. “AMIR TEMUR VA ULUG'BEK ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA”. Toshkent “O'QITUVCHI” 1996. 24-37-bet.

sohibqiron Amir Temur hukmronlik davrini o'z ichiga oladi. Asarning yana bir muhim jihati sohibqironning harbiy yurishlari bilan bog'liq voqealar yaxshi yoritib berilgan.⁶

Sharafiddin Ali Yazdiy Xuroson hukmdori Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzoga xizmat qilgan. "Zafarnoma", "Fathnomayi Temuriy", "Tarixi Jahongushoyi Temuriy" — Amir Temur davlati tarixiga bag'ishlab yozilgan asar. Bu asar Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan Ibrohim Sulton farmoniga ko'ra, Sherozda fors tilida yozilgan. Keyinchalik o'zining asosiy asari hisoblangan. Sharafiddin Ali Yazdiy 13 ta ilmiy ishi yaratib, ularning orasida "Zafarnoma" (Fotihlar kitobi) asari mashhurlikka erishgan. Muallif o'z ijodiy ishida turklarning kelib chiqish tarixi, Chingizxon tarixi, XIV asr boshlarida Markaziy Osiyo va qo'shni mamlakatlardagi siyosiy ahvoli ichki urushlar va tarqoqlikning kuchayishi natijasida sohibqiron Amir Temur maydonga chiqqanini ta'kidlab o'tgan. Ali Yazdiy Amir Temurning Movaraunnahrda davlat barpo etishiga keng va to'liq tushuncha berib o'tgan. Yana bundan tashqari "Zafarnoma"da Amir Temurning hukmronlik davri voqea-hodisalarini XIV- XV asrlarda tarixiy manba sifatida nafaqat O'rta Osiyo, Oltin O'rda, Eron va Afg'onistonlarni o'z ichiga olgan nodir asar deb hisoblasak bo'ladi.⁷

Ali Qushchi Mirzo Ulug'bek bilan Samarqandda ijod qilgan va "Hisob kaliti", "Aylana haqida" asarlarni yozgan. Yuqorida Ulug'bekning Samarqand ilmiy maktabining o'zagini tashkil qilgan eng asosiy olimlardan biri hisoblanadi. Albatta, bu shaharda ilmga asosiy turtki beruvchi va uning tashkilotchisi Ulug'bekning o'zi edi. Uning tashabbusi bilan 1417-yili bir vaqtning o'zida Samarqanddan tashqari Buxoro va G'ijduvonda ham madrasa qurilishi boshlanadi. Samarqanddagi madrasaning qurilishi 1420-yili tugallanadi va o'sha yili rasadxona qurilishi boshlanib, keyingi yili u ham nihoyasiga yetkaziladi. T. N. Qori-Niyoziy aytganidek, "Ulug'bek madrasani bitkazgach, unga dars beradigan olimlarni shaxsan o'zi tanlab oldi. Buning uchun oldindan ular bilan suhbatlashadi va ularning ilmi yetarli ekanligiga ishonch hosil qiladi". Madrasada Ulug'bekning o'zi ham ma'ruzalar o'qiydi. Ulug'bek "Zij" asaridan tashqari yana 3 ta asar yozgan. Bulardan biri "Risolasi Ulug'bek" bo'lib, u Hindistonda saqlanmoqda va hali ham o'rganilgan yo'q. "To'rt ulus tarixi" asari tarixchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asar juda ham noyob bo'lib, uning yagona to'liq bo'lmagan nusxasi hozirda Londondagi muzeyda saqlanadi.⁸

Alisher Navoiy Temuriylar davlatida ijod qilgan adabiyot homiysi, tarixchi va buyuk olim. U temuriyzoda Xusayn Bayqaro saroyida ishlagan va ijod bilan shug'ullangan. Hirotning obodonlashishi va unda olib borilgan qurilishlarning aksariyatini Alisher Navoiy qurdirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Xurosonda, xususan

⁶ Nizomiddin Shomiy. "ZAFARNOMA". Toshkent "O'ZBEKISTON" 1996. 3-55-bet.

⁷ Sh. A. Yazdiy. "ZAFARNOMA". Toshkent "SHARQ" 1997. 3-128-bet.

⁸ A. Axmad. "ULUG'BEK MUHAMMAD TARAG'AY". Toshkent "ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI" 1994. 21-26-bet.

Hirot va uning atrofida Navoiy va uning safdoshlari tashabbusi bilan uch yuzdan ortiq jamoat binolari qurilgan. XV asr muarrixii Xondamirning yozishicha, Navoiy o'z mablag'iga 52 rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom va boshqa bir qancha masjid, madrasa, xonaqoh va shifoxonalar kabi xayrli imorat va inshootlar qurdirgan. Astrobod shahrida qurilgan Mir saroyi va Jome masjidi, Marv shahrida bino qilingan Xusraviy madrasasi shular jumlasidandir. Alisher Navoiyning oqil va donoligi tufayli o'sha davrda ma'rifat va kitobat san'ati keng quloq yoygan.⁹

Natijalar va muhokama.

Temuriylar davridagi kitobxonlik va kitobat sa'ati mustaqillikgacha bo'lgan davrda ham o'rganilishi davom etgan. 1969-yilda Samarqandning 2500-yilligi nishonlanishi, respublikamizda YUNESKO ning Markaziy Osiyoda Temur va temuriylar davri san'atini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilishi va shu munosabat bilan qator muhim vazifalar turganligi qayd etilgan edi. Chunki shu paytgacha markscha-lenincha mafkuraga ko'raga ko'ra Amir Temur "bosqinchi", "ma'rifatni tushunmagan zolim" deb uqtirilgan. Lekin Ibrohim Mo'minov birinchilardan bo'lib Amir Temurni obyektiv o'rganish, uning turli sohalardagi ijobiy faoliyatiga to'g'ri baho berish masalasini ko'tarib chiqqan. Ibrohim Mo'minov 1968-yil Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarini ko'paytirish va nashrdan chiqishiga katta hissa qo'shgan. Bundan tashqari Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarining nashrdan chiqishiga katta hissa qo'shgan.¹⁰ 1992-yil may oyida tuzilgan "Amir Temur ma'rifiy jamiyati" hozirgi zamon o'zbek temurshunosligining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynay boshladi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning farmoni bilan 1996-yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Bu istiqlol sharofati bilan sohibqiron Amir Temur bobomizning milliy davlatchiligimizni barpo etishiga, fan, ta'lim va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasining e'tirof etilishiga sabab bo'ldi. 1996-yil aprel oyida sohibqiron Amir Temur tavallud topganiga 660 yil to'ldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov tashabbusi YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Parijda, YUNESKO qarorgohida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi" mavzusida madaniyat haftaligi o'tkazilishi mo'ljallanganligi ham buning yaqqol dalili hisoblanadi. Shundan so'ng temuriylar davridagi kitobat san'atining nodir namunalari bo'lgan qo'lyozmalar juda ham keng miqyosda o'rganila boshlangan.¹¹ Mustaqillikdan so'ng ham temuriylar davriga oid nodir qo'lyozmalar chuqur o'rganila boshlandi. O'sha davr kitobat san'atining nodir nusxalari hozirgi kunda Temuriylar davlat muzeyida saqlanmoqda. Chunki ular juda kamyob bo'lib, temuriylar davri kitobat san'atining yorqin namunasi hisoblanadi.

⁹ X. Karomatov. "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA". Toshkent "SHARQ" 2001. 102-bet.

¹⁰ I. Mo'minov. "AMIR TEMURNING O'RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI". Toshkent "FAN" 1993. 3-9-bet.

¹¹ L. Keren, A. Saidov. "AMIR TEMUR VA FRANSIYA". Toshkent "ADOLAT" 1996. 10-26-bet.

Xulosa.

Amir Temur va Temuriylar davriga kelib mo'g'ullar davridagi jaholat davridan chiqildi va madaniyat yana rivojlana boshlandi. Buning uchun Amir Temurning hissasi katta. Chunki sohibqiron bobomiz Movarounnahrda xattotlik, naqqoshlik, kitobxonlik va kitobat san'atining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Kitoblarni yozishda ham eng yaxshi qog'ozlardan foydalanilgan, ularni bezab ziyatlashda ham juda taraqqiy etishgan. Kitobat san'ati bu davrda rivojlangani uchun ham juda ko'p asarlar yaratilgan. Ba'zilar Amir Temur bilan Chingizxonning hayot yo'li va taktikalari bir xil deb aytishadi. Lekin bunda Amir Temurning ustun tomoni bor. Amir Temur oqil, savodli va madaniyat homiysi, san'atni tushunadigan inson bo'lgan. Shuning uchun bu davrga oid qo'lyozmalar hali ham o'rganilmoqda. Mustaqillik yillarda ham Temuriylar kitobat san'ati har tomonla o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Axmad. "ULUG'BEK MUHAMMAD TARAG'AY". Toshkent "Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi" 1994. 21-26-bet.
2. B. Ahmedov. "AMIR TEMUR SABOQLARI" (2-qism). Toshkent "G'afur G'ulom" 1999. 5-25-bet.
3. B. Ahmedov. "AMIR TEMUR VA ULUG'BEK ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA". Toshkent "O'QITUVCHI" 1996. 24-37-bet.
4. B. J. Eshov, A. A. Odilov, "O'ZBEKISTON TARIXI" (1-jild). Toshkent-2014. 10-26-bet.
5. I. Mo'minov. "AMIR TEMURNING O'RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O'RNINI VA ROLINI". Toshkent "FAN" 1993. 3-9-bet.
6. L. Keren, A. Saidov. "AMIR TEMUR VA FRANSIYA". Toshkent "ADOLAT" 1996. 10-26-bet.
7. M. Rahmonov, A. Umarov, T. G'afurbekov, M. Qodirov. "AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA SAN'AT". Toshkent "G'AFUR G'ULOM" 1996. 19-33-bet.
8. Nizomiddin Shomiy. "ZAFARNOMA". Toshkent "O'ZBEKISTON". 1996. 3-55-bet
9. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. "VATAN TARIXI" (1-kitob). Toshkent "SHARQ" 2010. 447-bet.
10. X. Karomatov "AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA". Toshkent "SHARQ" 2001. 102-177-bet
11. Sharafiddin Ali Yazdiy "ZAFARNOMA". Toshkent "SHARQ" 1997. 3-128-betlar.